



Muattar TEMIROVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: fragrant9898@gmail.com

TerDU dotsenti, PhD M.Qodirova taqrizi asosida

SEMANTIC AND STYLISTIC FUNCTION OF OXYMORON UNITS

Annotation

This article is devoted to the analysis of the semantic and stylistic functions of oxymoron, one of the important stylistic devices in literary speech. The study examines the main functions of oxymoron, such as creating semantic contrast, enhancing imagery, increasing emotionality, expressing philosophical meaning, and ensuring stylistic diversity, using examples from English and Uzbek literature. The foundation of the «deceived expectation» effect of oxymoron, the role of the epithet in enhancing imagery, the emotional impact of contradictory combinations, and the ability of paradox to create intellectual uncertainty serve as the theoretical basis for the analysis. The article confirms the significance of oxymoron in literary analysis and shows its relevance for stylistic research.

Key words: Oxymoron, stylistics, semantic function, stylistic function, literary analysis, English literature, Uzbek literature.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ И СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ОКСЮМОРОННЫХ ЕДИНИЦ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу семантических и стилистических функций оксюморона, одного из важных стилистических средств в литературной речи. В ходе исследования на примерах из английской и узбекской литературы рассматриваются основные функции оксюморона, такие как создание семантического контраста, усиление образности, повышение эмоциональности, выражение философского смысла и обеспечение стилистического разнообразия. Обоснование эффекта «обманутого ожидания» оксюморона, роль эпитета в усилении образности, эмоциональное воздействие противоречивых сочетаний и способность парадокса создавать интеллектуальную неопределенность служат теоретической основой для анализа. Статья подтверждает значимость оксюморона в литературоведческом анализе и показывает его актуальность для стилистических исследований.

Ключевые слова: Оксюморон, стилистика, семантическая функция, стилистическая функция, литературоведческий анализ, английская литература, узбекская литература.

OKSYUMORON BIRLIKLARNING SEMANTIK VA STILISTIK FUNKSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqola adabiy nutqdagi muhim stilistik vositalardan biri bo'lgan oksyumoronning semantik va stilistik funksiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida oksyumoronning semantik kontrast yaratishi, obrazlilikni kuchaytirishi, emotsionallikni oshirishi, falsafiy ma'no ifodalashi va stilistik xilma xillikni ta'minlashi kabi asosiy vazifalari ingliz va o'zbek adabiyotidan olingan misollar orqali ko'rib chiqiladi. Oksyumoronning "aldangan kutish" effektiga asoslanishi, epitetning obrazlilikni oshirishdagi roli, ziddiyatli birikmalarning emotsional ta'siri va paradoksnin fikriy noaniqlik yaratish xususiyati tahlil uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Maqola oksyumoronning adabiy tahlildagi ahamiyatini tasdiqlaydi va uning stilistik tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Oksyumoron, stilistika, semantik funksiya, stilistik funksiya, adabiy tahlil, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti.

Kirish. Adabiy nutqda badiiylilikni oshirish, obrazlilikni kuchaytirish va fikrni emotsional tarzda yetkazishda turli stilistik vositalar muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida stilistik vositalarning o'rni va ahamiyati ko'plab tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, mashhur stilist olim I.V. Arnold o'zining "Stylistics of Modern English" asarida stilistik vositalarning nutqqa ta'sir kuchini alohida ta'kidlaydi [1]. Ushbu vositalar orasida oksyumoron alohida o'rin tutadi. Oksyumoron – qarama-qarshi ma'noli tushunchalarning uyg'un birikmasi orqali kuchli estetik ta'sir uyg'otuvchi ifoda vositasi hisoblanadi.

Tilshunoslikda oksyumoron hodisasi stilistik tahlilning dolzarb obyekti sifatida ko'riladi. U muallifning maqsadini noan'anaviy yo'l bilan ifodalashga, o'quvchida emotsional va intellektual rezonans uyg'otishga xizmat qiladi. Adabiyotshunoslikda esa oksyumoron badiiy tafakkurning nozik qatlamlarini ochib beruvchi estetik vosita sifatida talqin

etiladi. Shuning uchun ham ko'plab adabiy asarlarda u muallifning individual uslubini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Oksyumoronning mohiyatini tushinishda uning "aldangan kutish" effekti muhim ahamiyatga ega. Bu haqda G.N. Leech o'zining "English in Advertising" asarida so'z yuritib, ziddiyatli birikmalarning o'quvchi yoki tinglovchida kutilmaganlik hissini uyg'otishi va shu orqali diqqatini jalb qilishini ta'kidlaydi [3].

Oksyumoronlar turli adabiy maktablar, uslublar va madaniy kontekstlarda keng qo'llanilgan bo'lib, ular matnning semantik va emotsional qatlamini chuqurlashtiradi.

Oksyumoronning adabiy tahlildagi ahamiyatini e'tirof etilgan holda, ushbu maqolada uning turli stilistik birliklar bilan o'zaro munosabatini, xususan, epitet va metafora bilan aloqasini tahlil qilishga qaratilgan. D. Tursunova o'z tadqiqotlarida epitetning obrazlilikni oshirishdagi muhim rolini qayd etadi [7]. Oksyumoron epitet bilan birgalikda

qo'llanilganda, ziddiyatli ma'nolar yanada yorqinroq bo'lib ko'rinadi va tasvirlarning ta'sirchanligi ortadi. Shuningdek, A.A.Ovsyannikov paradoksning fikriy noaniqlik yaratish va chuqur falsafiy ma'nolarni ifodalash xususiyatini ochib beradi [6].

Oksyumoron paradoksga yaqin bo'lganligi sababli, falsafiy fikrlarni ixcham shaklda yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli oksyumoronning turli stilistik birliklar bilan o'zaro munosabatini, ularning funksional imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek adabiyotidan olingan misollar asosida oksyumoronning semantik va stilistik xususiyatlari chuqur o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Oksyumoronning lingvistik va stilistik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu stilistik vositaning adabiy matnlarda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Arnold (1973) o'zining "Stylistics of Modern English" asarida oksyumoronni semantik qarama-qarshilik asosida individuallashgan obrazlar yaratuvchi vosita sifatida ta'riflaydi, bu esa uning adabiy tarjimada muhimligini ta'kidlaydi. Leech (1966) reklama tilidagi lingvistik xususiyatlarni o'rganar ekan, oksyumoronning diqqatni jalb qilish va emotsional ta'sir ko'rsatishdagi rolini tahlil qiladi, bu prinsip adabiy matnlarga ham tatbiq etilishi mumkin. O'zbek adabiyotidagi stilistik vositalarni o'rganuvchi.

Tursunova (1973) epithetlarning stilistik ahamiyatini tadqiq qilgan ekan, oksyumoronlarning o'xshash funksiyalarini ham qisman yoritadi, ammo uning ishida tarjima masalalari chuqur o'rganilmagan. Ovsyannikov (1981) paradoks va oksyumoron o'rtasidagi bog'lanishni tahlil qilib, ularning matnda murakkab semantik tuzilmalar yaratishdagi rolini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, mavjud adabiyotlar tahlili oksyumoronning o'ziga xos stilistik hodisa sifatida har bir tilda turlicha talqin qilinishini, ammo umumiy ma'noda u kontrast, ziddlik va estetik uyg'unlik asosida shakllanadigan universal til vositasi ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda oksyumoronning semantik va stilistik funksiyalarini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirish uchun oksyumoronning lingvistik va stilistik nazariyalari, shuningdek, bu sohada olib borilgan turli tadqiqotchilarning qarashlari chuqur o'rganildi.

Olingan nazariy bilimlar asosida ingliz va o'zbek adabiyotidan tanlab olingan oksyumoron misollari semantik va stilistik jihatdan qiyosiy tahlil qilindi. Bundan tashqari, har bir oksyumoronning adabiy asardagi konteksti, muallifning maqsadi va o'quvchiga ta'siri kontekstual tahlil usuli orqali aniqlandi.

Tahlil bosqichida deskriptiv va qiyosiy metodlar asosiy o'rinni egalladi. Ingliz va o'zbek adabiyotlaridan tanlab olingan oksyumoronlar o'zaro solishtirilib, ularning milliy-madaniy o'ziga xosliklari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, badiiy matnlarda oksyumoronning estetik ta'sir kuchi, u orqali ifodalanayotgan mualliflik niyati va hissiy ohang komponentlari aniqlashga e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijasida oksyumoronning adabiy matnda quyidagi semantik va stilistik funksiyalarni bajarishi aniqlandi:

Oksyumoron semantik jihatdan zid bo'lgan tushunchalarni birlashtirib, kutilmagan ma'no hosil qiladi va o'quvchining diqqatini tortadi [1]. Ta'kidlanganidek, bu usul o'quvchida kutilmagan semantik kontrast orqali estetik taassurot uyg'otadi.

Cho'lponning "o'ksik kulgu" iborasi kulgining ijobiy va o'ksikning salbiy ma'nolarini birlashtirib, satirik kayfiyatni kuchaytiradi [2]. Bu orqali muallif jamiyatdagi ayrim illatlarga

nisbatan norozilik va istehzoni ifodalaydi. Ushbu misol [1]dagi tushunchaga mos keladi, chunki "kulgu" kutilgan ijobiy ma'noga zid ravishda "o'ksik" sifatdoshi bilan birga kelib, kutilmagan semantik kontrastni yaratadi.

Oksyumoron yorqin va noodatiy obrazlar yaratish orqali tasvirlarning ta'sirchanligini oshiradi. Epitetning stilistik ahamiyatini tahlil qilishda uning obrazlilikni oshirishdagi roli qayd etiladi [7]. Oksyumoron epitet bilan birga kelganda (masalan, "jim faryod"), uning ta'sirini yanada kuchaytiradi va ziddiyatli obraz yaratadi.

Usmon Azimning "sukunat to'kilar quloqqa qichqiriqday" misrasi sukutning odatda eshitilmasligiga qaramay, qichqiriq kabi ta'irli bo'lishini metaforik tarzda ifodalaydi [8]. Bu orqali lirik qahramonning ichki iztiroblari o'quvchiga hissiy jihatdan yetkaziladi. Bu misolda "sukunat" va "qichqiriq" oksyumoronni hosil qilib, metaforik obrazning ta'sirchanligini boyitadi.

Oksyumoron ziddiyatli his-tuyg'ularni bir vaqtda ifodalash orqali o'quvchida kuchli emotsional reaksiyalar uyg'otadi [3]. Shu sababli, ziddiyatli birikmalar kuchli emotsional ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Qarama-qarshi so'zlar birikmasi xuddi shunday mexanizmga ega bo'lib, zid tuyg'ularni birga ifodalash orqali o'quvchining hissiy dunyosiga chuqur kirib boradi.

"Azobli huzur" birikmasi bir vaqtning o'zida og'riq va lazzat tuyg'ularini mujassamlashtirib, inson boshidan kechirishi mumkin bo'lgan murakkab hissiy holatni tasvirlaydi [5]. Bu oksyumoron o'quvchida ham shunga o'xshash ziddiyatli emotsiyalarni uyg'otishi mumkin.

Oksyumoron paradoks fikrlarni ixcham va ta'sirchan tarzda ifodalashga yordam beradi. Qayd etilishicha, paradoks fikriy noaniqlik yaratish va chuqur falsafiy ma'nolarni ifodalash xususiyatiga ega [6]. Oksyumoron paradoks bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ixcham shaklda falsafiy g'oyalarni yetkazishga xizmat qiladi.

Abdulla Oripovning "Buyuk jimjitlik" ifodasi tashqi sukunat ortidagi chuqur ma'naviy yoki ijtimoiy hayqiriqni anglatadi [4]. Bu orqali muallif olamdagi ziddiyatlar va yashirin ma'nolarga ishora qiladi. Ushbu oksyumoron ta'kidlanganidek, fikriy noaniqlik yaratib, o'quvchini chuqurroq o'ylashga undaydi.

Oksyumoronlar epitet, metafora va paradoks kabi boshqa stilistik vositalar bilan uyg'unlashib, nutqning rang-barangligini oshiradi [7, 6]. Oksyumoronning turli stilistik birliklar bilan kombinatsiyasi adabiy matnga o'ziga xos joziba va ta'sirchanlik baxsh etadi. Masalan, V. Woolfning "silent scream" (jim faryod) iborasi oksyumoron va epitetning sintezini namoyon etadi [9]. "Silent" (jim) epiteti "scream" (faryod) otining kuchli emotsional ma'nosini paradoks tarzda kuchaytiradi. Bu orqali personajning ichki dramasi yanada ta'sirliroq ifodalanadi. Ushbu misol oksyumoronning boshqa stilistik vositalar bilan uyg'unlashib, stilistik xilma-xillikka hissa qo'shishini yaqqol ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, oksyumoron adabiy tilda semantik jihatdan ziddiyatli bo'lgan tushunchalarni birlashtirish orqali o'ziga xos stilistik effekt yaratuvchi muhim vosita hisoblanadi. Oksyumoronning o'quvchiga ta'siri I.V.Arnold nazariya orqali izohlanadi. Epitetning obrazlilikni oshirishdagi roli oksimoronning ta'sirchanligini kuchaytiradi [7]. Ziddiyatli birikmalarning emotsional kuchga ega ekanligi oksyumoronning hissiy ta'sirini tushunishga yordam beradi [3]. Paradoksning fikriy noaniqlik yaratish xususiyati oksyumoronning falsafiy ma'no ifodalashdagi imkoniyatlarini ochib beradi [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oksyumoron nafaqat obrazlilik va emotsionallikni oshiradi, balki chuqur falsafiy ma'nolarni ixcham shaklda ifodalashga ham xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek adabiyotidan keltirilgan misollar oksyumoronning turli adabiy kontekstlarda qo'llanilishining

keng imkoniyatlarini namoyish etadi. Kelgusi ishlarda oksyumoronning turli janrlardagi va davrlardagi o'ziga xos qo'llanilish xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, uning o'quvchi tomonidan idrok etilishining psixologik mexanizmlarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Oksyumoron adabiy tilning chuqur ma'no va estetik yuklamaga ega bo'lgan muhim ifoda vositasi sifatida o'ziga xos o'rin egallaydi. U boshqa stilistik birliklar — epitet, metafora va paradoks bilan uyg'unlashgan holda qo'llanganda yanada kuchliroq semantik va emotsional effekt hosil qiladi.

Oksyumoronlar o'zbek va ingliz adabiyotida muallifning psixologik, ijtimoiy va falsafiy fikrlarini ifodalashda keng qo'llanadi. Ushbu tadqiqot oksyumoronning adabiy tahlildagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi va uni stilistik tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, oksyumoron birliklarning o'rganilishi nafaqat adabiy tahlil, balki tarjimashunoslik, psixolingvistika va

madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday birliklar turli madaniy kontekstlarda turlicha talqin qilinadi, bu esa o'z navbatida milliy dunyoqarash va obrazlilikning o'ziga xos jihatlarini ochib beradi. Kelgusida oksyumoronlarning zamonaviy badiiy matnlarda, ayniqsa, publitsistik uslub va ijtimoiy tarmoqlar tili orqali yangi ma'no qatlamlari hosil qilishi ehtimoli yuqori. Shu bois, bu hodisani zamonaviy lingvopoetik yondashuvlar, kognitiv va diskurs tahlil asosida yanada chuqurroq o'rganish zarur.

Tadqiqot natijalari oksyumoronlarning ta'sirchanlik, kontrast yaratish va badiiy fikrni boyitishdagi o'rni nihoyatda muhimligini ko'rsatadi. Ularni o'qitish jarayoniga, xususan, adabiy tahlil va stilistika fanlariga kiritish, talabalarda estetik tafakkur va badiiy idrokni rivojlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, o'zbek va ingliz tillaridagi oksyumoronlarni qiyosiy o'rganish orqali tilning milliy ruhini, obrazlilik imkoniyatlarini yanada teranroq anglash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Arnold I.V. Stylistics of Modern English. – Moskva: Higher School, 1973. – 304 b.
2. Cho'lpon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1990. – 320 b.
3. Leech G.N. English in Advertising: A Linguistic Study of Advertising in Great Britain. – London: Longman, 1966. – 210 b.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 416 b.
5. Orwell G. 1984. – London: Secker and Warburg, 1949. – 312 b.
6. Овсянников А.А. Парадокс как стилистическое средство. – Москва: Наука, 1981. – 180 б.
7. Турсунова Д. О стилистическом значении эпитета. – Тошкент: Фан, 1973. – 150 б.
8. Usmon Azim. She'rlar to'plami. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2020. – 208 b.
9. Woolf V. To the Lighthouse / V. Woolf. – London: Hogarth Press, 1927. – 320 b.